

# Transchegaraviy bankrotlikda yuridik shaxsni qayta tashkil etish

Nosirov Sherzod Shermatovich | [shnosirov5@gmail.com](mailto:shnosirov5@gmail.com)

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada transchegaraviy bankrotlik jarayonida yuridik shaxsni qayta tashkil etishning muhim jihatlari muhokama qilingan. Yuridik shaxsni qayta tashkil etishning bankrotlikdan oldingi chora tadbir yoki bankrotlik jarayonidagi maxsus yachim sifatidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot yuridik shaxsni qayta tashkil etishning umumiy bankrotlik jarayoni doirasida tamoyillari, mexanizmlari va amaliy oqibatlarini o'rganib chiqadi, ularning xalqaro huquq landshaftida moslashuvchanligi va maqsadga muvofiqligini yoritadi. Undan kelib chiquvchi xavf-xatarlar va murakkabliklar o'rganilib, hal qilishda muhim taklif va yechimlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** : transchegaraviy bankrotlik, yuridik shaxsni qayta tashil etish, yurisdiksiya, asosiy manfaatlar markazi, birlashish, qo'shib yuborish, ajratib chiqarish, bo'lish, kreditor, qarzdor, sudgacha sanatsiya, to'lovga qobiliyatsizlik.

## Реорганизация юридического лица при трансграничном банкротстве

Носиров Шерзод Шерматович | [shnosirov5@gmail.com](mailto:shnosirov5@gmail.com)

Магистранта Университета мировой экономики и дипломатии

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются важные аспекты реорганизации юридического лица в процессе трансграничного банкротства. Анализируется роль реорганизации юридического лица как предбанкротной меры или специального решения в процессе банкротства. В исследовании рассматриваются принципы, механизмы и практические последствия реорганизации юридических лиц в рамках общего процесса банкротства, подчеркиваются их гибкость и целесообразность в международно-правовом пространстве. Изучены опасности и осложнения, возникающие при этом, представлены важные предложения и решения.

**Ключевые слова:** трансграничное банкротство, перемещение юридического лица, юрисдикция, центр основных интересов, слияние, присоединение, выделение, разделение, кредитор, должник, досудебная реабилитация, несостоятельность.

# Reorganization of a legal entity in cross-border bankruptcy

Nosirov Sherzod Shermatovich | [shnosirov5@gmail.com](mailto:shnosirov5@gmail.com)

Master's student of the University of World Economy and Diplomacy

**Annotation:** This article discusses the important aspects of the reorganization of a legal entity in the process of cross-border bankruptcy. The role of legal entity reorganization as a pre-bankruptcy measure or a special solution in the bankruptcy process is analyzed. The study examines the principles, mechanisms and practical implications of legal entity reorganization within the general bankruptcy process, highlighting their flexibility and appropriateness in the international legal landscape. The dangers and complications arising from it are studied, and important proposals and solutions are presented.

**Keywords:** cross-border bankruptcy, reorganization of a legal entity, jurisdiction, center of main interests, merger, separation, division, creditor, debtor, pre-trial rehabilitation, insolvency.

Bugungi globallashtirish davrida kompaniyalarning transchegaraviy savdo, iqtisodiy va moliyaviy o'zaro bog'liqligi, shuningdek, xususiy shaxslarning faoliyati va migratsiyasi natijasida to'lovga layoqatsizlik holati ham transchegaraviy darajaga ko'tarilishi tabiiy holdir. Endi esa davlatlar oldida ushbu transchegaraviy bankrotlikni tartibga solish kabi murakkab vazifa turibdi. Bunday holatda bankrotlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan sohalarning transchegaraviy yondashuvlarini o'rganish va ularning transchegaraviy bankrotlik protsesining borishidagi ta'sirini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, korporativ munosabatlar milliy bankrotlik bilan birgalikda transchegaraviy bankrotlikning ham asosiy tayanchi hisoblanib, bu ikki sohaning uzviy bog'liqligi va o'zaro ta'sirini aytib o'tish masalaga to'g'ri yechim topishda muhim rol o'ynaydi. Korporativ munosabatlardagi yuridik shaxslarni qayta tashkil etish masalasining bankrotlik munosabatlarini hal qilishdagi o'rni "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi 763-sonli O'zbekiston Respublikasi qonunining 34-moddasida sudgacha sanatsiya qilishning asosiy chora-tadbirlaridan biri sifatida berilganligidan ham ko'rish mumkin. Ammo yuridik shaxsni qayta tashkil etish ushbu qonun bo'yicha kuzatuv tartib-taomili paytida taqiqlanganligi va sud sanatsiyasi paytida faqat kreditorlar kengashining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlangan. Bu holatni xalqaro darajada ko'rib chiqqanda bu uslubning samarali amalga oshirish shartlarini, shuningdek, buning orqasida paydo bo'ladigan xavf-xatar va murakkabliklarni aytib o'tish joiz bo'ladi.

Transchegaraviy bankrotlik bir davlat hududidagi faqat milliy qonunlar va bir xil yurisdiksiyadagi munosabatlardan farqli ravishda tartibga solishda bir qancha qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunda bir bankrotlik ishi bo'yicha bir nechta yurisdiksiyalarda sudlarning olib borilishi va milliy qonunchiliklarning o'zaro tafovutlari sababli vujudga keladigan huquqiy labirintlar qarzdor va kreditorlarga o'z o'rnida turli xatarlarni paydo qilishi mumkin. Har bir tarafning o'z manfaatlarini yo'lida harakat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, bu labirintdan chiqish yanada murakkablashadi. Transchegaraviy bankrotlik jarayonida korxonani qayta tashkil etish ham bir qancha xavf-xatar, bundan tashqari ikki tarafga ham foydali yechimlarni taklif qiladi. Xususan, korxonani qayta tashkil etish natijasida yurisdiksiyaning o'zgarishi va bankrotlik jarayonining cho'zilishi kreditorlarga bir nechta xavf-xatar va noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Ushbu risklarni ketma-ketlikda ko'rib chiqib vaziyatni tahlil qilamiz.

Yurisdiksiyaning o'zgarishi.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi korxonaning to'lovga layoqatsizligi vujudga kelishi uning tomonidan bir qancha choralarni ko'rishga majbur qiladi. Har bir holatni o'z foydasiga hal qilish va ushbu vaziyatdan chiqib ketishda qayta tashkil etish masalasi ham turadi. Korxonani qayta tashkil etish kelgusidagi sud yurisdiksiyasini hal qilishi mumkin. Misol uchun hozirda faoliyat yuritadigan hudud bo'yicha yurisdiksiya qarzdorga bir qancha noqulayliklar va to'siqlar qo'yishi, uning qayta rehabilitatsiyasi uchun imkoniyatlar yaratmasdan tugatish tartib-taomili orqali korxonani mulki hisobidan qarzlarni qoplashni belgilashi mumkin. Uning boshqa hududdagi korxonani bilan birlashishi yoki qo'shib yuborilishi yurisdiksiyasining o'zgarishiga va uning barcha huquq, majburiyatlari uchun javobgarlikning qayta tashkil etilgan yuridik shaxs zimmasiga yuklashga sabab bo'ladi. Bu esa keyinchalik bankrotlik sud ishining asosiy manfaatlar markazi qoidasi asosida ushbu yangi tashkil etilgan yuridik shaxs joylashgan hududda ochilishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda esa kreditorlarning sud bilan aloqasi qiyinlashishi mumkin. Bu holatda parallel ravishda boshqa sud ishi ochilishi mumkin. Ammo ikkinchi sudning ochilishi ko'pincha holatlarda natijasiz tugaydi. Chunki ushbu sud faqat o'z yurisdiksiyasi doirasidagi mulk uchun qaror chiqarishi mumkin. Ammo asosiy manfaatlar markazi boshqa yurisdiksiyada bo'lganligi sababli u majburiy qarorlar chiqarishi mumkin emas. Asosiy manfaatlar markazi bo'yicha ochilgan bankrotlik ishi asosiy sud ishi hisoblanib, muhim qarorlar u tomonidan qabul qilinadi. Korxonaning asosiy aktivlari ham asosan, ushbu yurisdiksiyada joylashadi. Korxonani bo'lish va ajratib chiqarishda ham bir qancha risklar mavjud. Xususan, bir nechta davlatda mulklari bo'lgan korxonaning bo'lish yoki ajratib chiqarish orqali qayta tashkil etilishi kreditorlar uchun murakkab vaziyatni tug'dirishi mumkin. Bunda bir davlat hududida bir qarzdorning qarzlari miqdori ko'p, ammo ajratib chiqarishdagi yoki bo'linishdagi ajratilgan mulkning hissasi bu qarzlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Huquqiy vorislik asosida o'tgan majburiyatlarni bajarish ushbu qayta tashkil etilgan korxonani zimmasiga qolib ketadi va kelajakdagi to'lovga qobiliyatsizlik protsessida bu majburiyatlar bajarilmay, kreditorlar esa qarzlarni olmay qolib ketadi.

Sud jarayonining cho'zilishi.

Yuqorida keltirilgan holatlar, albatta to'lovga qobiliyatsizlik bo'yicha sud ishining ochilishidan oldin amalga oshirilishi mumkin. Chunki umumiy qoida bo'yicha to'lovga qobiliyatsizlik ishining ochilishi korxonani qayta tashkil etishni taqiqlaydi yoki sanatsiya tartibida faqat kreditorlar kengashining rozilishi asosida

amalgaga oshirilishini majburiy qilib qo'yadi. Ammo transchegaraviy bankrotlik ishining ochilishidan oldin boshlangan qayta tashkil etish jarayonining to'xtalishi yoki bekor qilinishi bo'yicha hech qanday qoida yo'q. Ammo amaliyotda ushbu jarayonning to'xtatilishi kreditorlarning talabi bo'yicha keyinchalik qarzdorning to'lovga qodirlik holatiga ta'sir ko'rsatishini isbotlagandagina to'xtatiladi yoki bekor qilinadi. Bunday vaziyatda qayta tashkil etishning davom etishi bankrotlik sud ishining ushbu jarayon yakunlanguncha to'xtab turishiga olib keladi. Bu esa qarzdorga yetarlicha vaqt olib keladi. Kreditorlarga esa qarzini vaqtida undirishida to'siqlarni paydo qiladi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etishning transchegaraviy bankrotlikda yechim sifatida.

Ko'pincha yuridik shaxsni qayta tashkil etish biznes muammolarini hal qilishning bir usuli hisoblanadi: rentabellikni oshirish, tashkilotdan muammoli bo'linmalarni olib tashlash orqali soliqlarni kamaytirish. Shu sababli ushbu jarayon O'zbekiston qonunchiligida sudga sanatsiya qilish chora-tadbirlari sifatida va sud sanatsiyasi paytida amalga oshirilishi mumkinligi keltirilgan. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish orqali, xususan, birlashish va qo'shib yuborish usulida kreditorlar uchun foydali vaziyat yaratilishi mumkin. Bu holatda qarzlarni to'lash majburiyati qayta tashkil etilgan korxonaga zimmasiga tushadi. Agarda qo'shilayotgan yoki birlashayotgan korxonalar moliyaviy jihatdan kuchli bo'lsa, kreditorlarning qarzlari qoplanishi va nochor ahvoldagi biznesning rivojlanishini osonlashtiradi. Bunday holat ikkala birlashuvchi taraflarga ham birday foydali bo'lishi mumkin. Chunki nochor korxonaga qarz majburiyatlaridan qutuladi, ikkinchi taraf esa arzon narxda korxonaga faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli transchegaraviy bankrotlikda ham ushbu jarayonni rehabilitatsiya va kreditorlar talablarini qondirishning bir usuli sifatida amalga oshirish foydali bo'ladi. Ammo bu jarayonni qo'lash kreditorlarga xavf solmasligini ham inobatga olish lozim.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etishni haqiqiy emas deb topish.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etishni haqiqiy emas deb topish masalasi maxsus vakolatli organ yoki sud orqali amalga oshirilishi mumkin. Transchegaraviy bankrotlikda ushbu jarayonning kreditorlar talabi orqali boshlanishida bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Qayta tashkil etishning haqiqiy emas deb topilishi bo'yicha ishlarning bankrotlik ishi tarkibida emas, korporativ munosabatlardan kelib chiquvchi nizo ekanligini inobatga olib, ushbu qayta tashkil etish jarayoni ustidan kreditor tomonidan shikoyat qilinishi bankrotlik ishi ko'rilayotgan sudda emas, balki

boshqa sud tomonidan ko'rib chiqilishiga olib keladi. Bu esa kreditorga ortiqcha qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqaradi. Qayta tashkil etishning korxonaga to'lov qobiliyatiga ta'sir etishi va bu jarayonni haqiqiy emas deb topish milliy qonunchilik bilan hal qilinishi nisbatan oson. Ammo transchegaraviy bankrotlik protsesi davomida bu holatning isbotlanishi va amalga oshirilishi huquqiy labirintdagi to'siqlarni yanada murakkablashtiradi. Chunki bu qayta tashkil etish endi bir davlat sudi yoki davlat organi tomonidan hal qilinadigan masala emas, balki bir nechta yurisdiksiya sudlarining o'zaro hamkorligini talab qiluvchi murakkab jarayonga aylanadi. Buni hal qilish esa transchegaraviy bankrotlik sohasini rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin. Transchegaraviy bankrotlik bo'yicha biznesni qayta tashkil etishda eng muhim masala - bu muvofiqlashtirilgan xalqaro huquqiy bazaning yo'qligi. Har bir yurisdiksiyada bankrotlik to'g'risidagi o'ziga xos qonunlar, tartiblar va ustuvorliklar mavjud bo'lib, bu chegaradan tashqarida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun tartibga solish murakkabliklari labirintida harakat qilishni qiyinlashtiradi. Bunday bir xillikning yo'qligi ko'pincha samarasizlik, kechikishlar va xarajatlarning oshishiga olib keladi, chunki kompaniyalar bir-biriga zid bo'lgan qonuniy talablarni hal qilishga harakat qilishadi. Bu jarayonga korporativ munosabatlar asosida vujudga kelgan nizolarning qo'shilishi vaziyatni hal qilishda murakkab vaziyatni vujudga keltiradi. Chunki yuridik shaxsni qayta tashkil etish va uni haqiqiy emas deb topish turli yurisdiksiyalarda turlicha amalga oshiriladi. Transchegaraviy bankrotlikda qonunlarning garmonlashuvi va turli yurisdiksiya sudlari o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi bu murakkabliklarni hal qila oladi.

Xulosa. Transchegaraviy bankrotlik biznesini qayta tashkil etishning qiyinchiliklari juda katta bo'lsa-da, huquqiy, protsessual va madaniy tashabbuslar kombinatsiyasi orqali yechimlarga erishish mumkin. Xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirishni rag'batlantirish transchegaraviy bankrotlikda yuridik shaxsni qayta tashkil etishning murakkabliklarini hal qilish uchun zarurdir. Maqsad ilg'or tajribalarni almashish, umumiy muammolarni hal qilish va turli huquqiy tizimlar haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish uchun platforma yaratishdir. Hujjatlar va tartiblarni yurisdiksiyalarda standartlashtirish yana bir samarali strategiyadir. Jahonda qo'llaniladigan samarali qoidalar va amaliyotlar to'plamini ishlab chiqish orqali manfaatdor tomonlar qayta tashkil etish jarayonini yanada samaraliroq boshqarishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar va professional tashkilotlar bunday standartlarni ishlab chiqish va qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Transchegaraviy bankrotlikda yuridik shaxsni qayta tashkil etish bo'yicha yoki

umuman bankrotlik va korporativ munosabatlarda ixtisoslashgan xalqaro sudlar yoki tribunallarni tashkil etish dadil yechimdir. Ushbu institutlar murakkab ishlarni hal qilish, huquqiy izohlash va qo'llashda izchillikni ta'minlash uchun neytral va ekspert forumlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday xalqaro tuzilmalar zamonaviy biznesning global tabiatiga mos keladigan izchil yurisprudensiyani rivojlantirishga hissa qo'shadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni // lex.uz
2. Leng Fei. Two Esseys on Corporate Reorganization under Chapter 11. PhD thesis. University of Tennessee. – Knoxville. 2006.
3. Отахонов Ф.Х., Ибратова Ф.Б. Хўжалик судларида банкротлик ишларини кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. Монография. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2013. – Б.
4. Карелина С.А. Механизм правового регулирования отношений несостоятельности. М.: Волтерс Клувер, 2008. – С. 161.
5. Реорганизация в деле о банкротстве. Как недобросовестные должники меняют управляющих и подсудность. Дмитрий Тугуши, советник АБ «Егоров, Пугинский, Афанасьев и партнеры», Роман Крылов, младший юрист АБ «Егоров, Пугинский, Афанасьев и партнеры», 2014.